

f.f.n. Shabanov Jumali
ToshDSHI “Turkiy tillar” kafedrasi dotsenti
Shabanova Sadaf Djumaliyevna
ToshDSHI magistranti

SOMATIZMLAR ISHTIROK ETGAN IBORALARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA O’RGANISH MASALALARI

Kalit so‘zlar: somatizm, ibora, frazeologiya, frazeologik birlik, frazeologizm.

Key words: somatism, expression, phraseology, phraseological units.

Ключевые слова: соматизм, выражение, фразиология, фразеологическая единица, фразеологизм.

Annotasiya: Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning frazeologiya sohasi, uning shakllanish tarixi, somatizmlar ishtirok etgan iboralarning zamonaviy tilshunoslikda o’rganishga oid o’ziga hos jihatlari o’rganilgan.

Annotation: This article deals with the phraseology, history and the formation of phraseology, the use of somatisms in phraseology in modern linguistics.

Аннотация: В данной статье рассматривается фразеологический аспект современного языкоznания, история и формирование фразеологии. Так же изучается использование соматизмов в фразеологии в современной лингвистике.

Har bir xalq tilidagi maqol va iboralar asrlar davomida juda katta hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, turli vositalar bilan kelajak nasllarga meros qilib qoldiriladi. Shu sababdan ham ular bebaho meros hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, xalqning benihoya boy tarixiy-madaniy, etnik-ma’naviy tajribalari, ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, ya’ni uning o’zigagina xos olamning lisoniy manzarasi til vositasida shakllangani kabi mazkur tajribalarning barchasi aynan xalqning tilida o‘z ifodasini topadi. Yuqoridagilarni inobatga olib ushbu maqolada somatizmlar ishtirok etgan iboralarning zamonaviy tilshunoslikda o’rganib chiqilganligini ko‘rib chiqamiz.

Mavzuning dolzarbligi. Iboralar har bir tilning muhim va o‘ziga xos birliklaridan biri ekan, ular vositasi orqali o’sha xalq madaniyati, o‘ziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishish mumkin. Maqola doirasida “qo‘l” va “oyoq” somatizmlari ishtirok etgan iboralarning zamonaviy tilshunoslikda o’rganish masalalari va mazkur iborlarda inson obrazining namoyon bo‘lishiga oid ilmiy ishlar ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi. Somatizmlar ishtirok etgan iboralarning zamonaviy tilshunoslikda o’rganilganlik darajasini tahlil qilish.

Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli asos soldi. Ferdinand de Sossyur o‘z davrida frazeologizmlarni tildagi tayyor birliklar sifatida qayd etgan edi.¹ Amerikalik tilshunos olim Uolles L.Cheyf frazeologik birliklar haqida, til taraqqiyotining ma’lum bosqichida yuzaga kelgan o‘zgarishlar yangi

¹ Соссюр де Ф. Труды по языкоznанию. – М.: Прогресс, 1977. – С.157

ма’ноларни яратади, уларни ifodalashda alohida qoliplar shart bo‘lmay, balki biror eski, ya’ni tilda avvaldan mavjud bo‘lgan materiallardan foydalaniladi, degan edi.²

Frazeologiya sohasida rus tilshunosligi katta tajriba to‘pladi. Ilk bor A.Shaxmatov, A.Peshkovskiylar tarafidan o‘rganilgan frazeologizmlar keyinchalik V.Vinogradov, B.Larin, N.Shanskiy, A.Smirnitskiy, A.Kunin, V.Jukovlar tomonidan rivojlantirildi. Mazkur olimlar frazeologizmlarni Grammatik, semantik, funksional-uslubiy jihatlardan o‘rganishdi.

Turkiyshunoslikda ham frazeologizmlar grammatik-qurilish, leksik-semantik tarafdan o‘rganilib, qator yutuqlarga erishildi. Jumladan, S.K.Kenesbayev, F.R.Axmetjanova, R.E.Jaykasova, R.M.Tayeva (qozoq tilida), G.A.Bayramov (ozarbayjon tilida), Ch.G.Sayfullin (uyg ‘ur tilida), S.Navro‘zboyeva (qoraqalpoq tilida) va S.I.Muratovning “Turkiy tillarda turg‘un so‘z birikmalari” ishida frazeologizmlar tadqiq qilindi.

Xususan, o‘zbek tilining FBlari (frazeologik birliklari) ham har taraflama tadqiq etildi. Sh.Raxmatullayev, Y.D.Pinjasov, A.Shomaqsudov, M.Xusainovlarning nomzodlik dissertatsiyalarini o‘zbek frazeologiyasiga doir dastlabki ishlar qatoriga kiritish mumkin. Agar Sh.Raxmatullayevning nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek tiliadagi fe’l iboralarning Grammatik xususiyatlarini o‘rganish ishi boshlab berilgan bo‘lsa, olim 1966 yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi va shu asosda e’lon qilingan “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasini bilan tilimizdagи FBlarni lug‘aviy birlik sifatida o‘rganishni asosladi. Bu ishda FBlardagi polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonimiya, omonimiya hodisalari boy faktik material tahlili asosida chuqur tadqiq etilib, iboralarning lug‘aviy birlik sifatidagi boshqa belgi-xususiyatlarini tekshirishga yo‘l ochilgan.³

Mazkur ishlarda frazeologiya doirasi keng va tor tushunilgan. Frazeologiyani keng tushunuvchi olimlar uning tarkibiga maqollar, matallar, aforizmlarni kirlitsalar, uni tor ma’noda tushunuvchi olimlar faqat iboralarning o‘zi bilan cheklanadilar.

Frazeologiya o‘zi bu nima? Frazeologiya yunon tilidan olingan bo‘lib, “phrasis” – ifoda, ibora va “logiya” – o‘rganaman, ya’ni iboralarni o‘rganaman degan ma’noni bildiradi. Ibora ikki va undan ortiq so‘zlardan tarkib topgan lug‘aviy birlik bo‘lib, xuddi so‘z kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi. Xuddi so‘z kabi yaxlit bir ma’noni anglatadigan bunday til birligi *frazeologik birlik* yoki *frazeologizm* deyiladi. Ibora tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga o‘xshab ketsa ham nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi. U so‘z birikmasi kabi har gal nutqning o‘zidagina yuzaga kelmaydi. Til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo‘ladi. Shunga ko‘ra iboralarni tilshunoslikda turg‘un so‘z birikmasi deb ham yuritiladi. So‘z birikmasining tarkibidagi so‘zlar o‘z leksik ma’no mustaqilligini saqlagan bo‘ladi. Iboraning tarkibidagi so‘zlar esa o‘z leksik ma’nosini bilan qatnashmaydi, ma’nosini yo‘qotgan bo‘ladi. Iboralar ham so‘zlar kabi ifoda va ma’no butunligiga ega. So‘zning ifodaviy tomonini tovushlar tashkil etsa, iboraning ifoda tomonini esa so‘zlar tashkil etadi.

² Чейф У.Л. Значение и структура языка. – М.: Прогресс, 1975. С.- 25

³ Йулдошев Б. Ҳозирги узбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – Б.8

O‘zbek yozuvchilari, shoirlari asarlarining tili va uslubiga oid ko‘pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida FBlarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor berildi.

Keyingi yillarda “O‘zbek tili frazeologik birliklarining struktur-funksional xususiyatlari” A. Rafiyev, “O‘zbek va rus tillarida ravish frazeologik birliklar” qiyosiy jihatdan I. Rasulov, “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari” B. Yo‘ldoshev tomonidan o‘rganildi.

Shunday qilib, Turkiyaning o‘zida ham frazeologik birliklar semantik, funksional-uslubiy tarafdan o‘rganildi. Bu jihatdan “Tilshunoslikda ibora tushunchasi va uning turk tilida o‘rganilishi Laylo Subashi, “Qoraxoniylar va eski Onado‘li matnlarida iboralar, maqollar va matallar” Ustuner Ahat, “Turk va ingliz tillarida ayol obrazi bilan bog ‘liq frazemalar” Og‘uz Gulhar, “Ozarbayjon tilining maqol va iboralari” O‘zturk Go‘ksel kabi olimlarning ilmiy ishlari diqqatga sazovordir. Shu bilan birga Umar Asim Aksoy, Ali Dereli, Hayri Kojaoluk, Yusuf Ziyo Bahodinli, Aydin Dag ‘pinar singari olimlar tarafidan qator frazeologik lug‘atlar yaratildi.

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida ham, turk tilida ham frazeologik birliklar qator ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilgan. Shu bilan birga har ikki tilda o‘rganilishi lozim bo‘lgan sohalardan biri qiyosiy frazeologiyadir.

Turkiy tillar tizimidagi umumiyy qonuniyatlarni xususiy jihatlar asosida aniqlash, umumiyy aloqadorlikni keltirib chiqaruvchi qoidalar va imkoniyatlarni belgilash, shakl-mazmun ifodasidagi binar oppozitsiya mezonlarini yoritish faqatgina qiyosiy-tipologik tadqiqotlar natijasidagina amalga oshirilishi mumkin. Bunday izlanishlar, avvalo, til sistemasidagi ayrim qismlar, hodisalar doirasida olib borilib, so‘nggi bosqichda uzviy aloqadorlikdagi hodisalarning umumlashma tavsifi yaratilishi taqozo etiladi.

Jahondagi ko‘pchilik tillar frazeologiyasining asosiy qismini somatik frazeologizmlar tashkil etadi. Somatik frazeologizmlar tarkibida somatizmlar, ya’ni tana a’zolari nomlarini bildiruvchi so‘zlar qatnashgan birliklardir. Aynan somatik frazeologiyada har bir xalqning ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlari va an’analari o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Jahon tilshunosligida somatik frazeologizmlar doirasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Somatik frazeologizmlarning ilk tadqiqotchilaridan biri F.Bakk sanaladi. U butun somatik frazeologizmlarni uch guruhga: faqat odamlarni tasvirlaydigan, odamlar va hayvonlarni tasvirlaydigan, faqat hayvonlarni tasvirlaydigan iboralarga ajratdi. Keyingi yillarda somatik frazeologizmlar qiyosiy planda turli tizimdagi tillar doirasida o‘rganildi. Bu o‘rinda Y.Dolgopolov (rus, ingliz va nemis tillarida somatik frazeologizmlar), M.Abilgaliyeva (qozoq va nemis tillarida somatik frazeologizmlar), D.Saypullayeva (turkman va ingliz tillarida somatik frazeologizmlar) kabi olimlarning tadqiqotlarida muhim yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Turkiy tillar somatik frazeologizmlarining semantikasi D.Bazarova tomonidan tadqiq etildi. Olima somatik frazeologizmlarning nafaqat leksik, balki Grammatik kategoriylarini shakllantirishdagi ahamiyatini ham ko‘rsatib berdi.

Zamonaviy tilshunoslikda iboraviy birliklarni o‘rganish bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy ishlar yaratilgan. Mazkur ishlarda ma’lum bir til (yoki bir necha tillar) doirasida

iboralarning leksik-semantic jihatlari bilan bir qatorda funksional xususiyatlari ham atroficha tadqiq qilingan. Shu bilan birga, somatizmlar qatnashgan iboralar tahliliga bag‘ishlangan ishlar hajmi ham salmoqlidir.

Quyida somatizmlar ishtirok etgan iboralarning zamonaviy tilshunoslikda o‘rganish masalalariga to‘xtalib, jahon, turk va o‘zbek tilshunosligida mazkur mavzuga oid ilmiy ishlar bilan tanishamiz.

Jahon tilshunosligida somatizmlar qatnashgan iboralar tahliliga bag‘ishlangan bir qator ishlar mayjud bo‘lib, bir qancha olimlar ishlarida ularning leksik-semantic xususiyatlariga e’tibor qaratadilar.

Xususan, Mehdi Nassirining ko‘plab ilmiy ishlari “qo‘l” va “oyoq” somatizmlari ishtirok etgan frazeologizmlarlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib [Хассири, 2015], “qo‘l” leksemasi qo‘llangan somatik iboralarning “qobiliyat”, “mahorat” ma’nolari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan bu iboralar o‘zida tashigan sifat-tavsifiy ma’nosini tadqiq qilinib, ular gradual leksikaning bir qismi sifatida ko‘rib chiqilgan. “Qo‘l” somatizmi qatnashgan rus iboralarini tahlil qilar ekan, muallif mazkur iboralarning, asosan, “mehnat” mavzusiga tegishli ekanligini ta’kidlaydi [Хассири, 2014: 318]. “Oyoq” somatizmi qatnashgan rus iboralarida asosan “asos” va “tirgak” ma’nolari ko‘rib chiqiladi [Хассири, 2014: 69].

Jahon somatizmlar qatnashgan iboralarni o‘rganishda qiyosiy tahlil usuli rivoj topgan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi ishlar soni salmoqlidir.

Lenka Chiklova bitiruv malakaviy ishida rus va chek tilidagi “qo‘l” somatizmi ishtirok etgan iboralarni qiyosiy tahlil qiladi. Bunda, asosan, rus tilidagi iboralarning chek tilida ekvivalenti bor yo‘qligi va qanday tarjima qilish masalalari qo‘yiladi. Shu jihatdan muallif “qo‘l” somatizmi qatnashgan iboralarini 4 guruhga ajratadi: 1) ikki tilda ham mayjud ma’no jihatdan sinonim qo‘l somatizmi qatnashgan iboralar; 2) faqat bir tilda qo‘l somatizmi qatnashgan ibora ikkinchi tilda boshqa somatizm ishtirok etgan ibora bilan ma’nodosh; 3) bir tilda qo‘l somatizmi qatnashgan ibora ikkinchi tilda boshqa usulda ifodalanishi; 4) bir tilda qo‘l somatizmi qatnashgan iboraning ikkinchi tilda ekvivalenti yo‘qligi [Чыклова, 2012: 21].

Rus va fransuz tillaridagi somatizmlar ishtirok etgan iboralarni qiyosiy tahlil qilgan I.B.Gorodeskaya “bosh”, “ko‘z”, “yurak”, “qo‘l”, “oyoq” somatizmlari ishtirok etgan iboralarni o‘rganish davomida “qo‘l” somatizmi qatnashgan iboralar har ikki tilda eng keng tarqalgan iboralar ekanini qayd etadi [Городецкая, 2007].

Chete Timea o‘z dissertatsiyasida rus va venger tillaridagi somatik frazeologizmlarni tahlil qilar ekan, ularning har ikki xalq tilida tutgan o‘rnini ko‘rib chiqadi [Чэтэ Тимея, 1999].

Boshqa bir olma A.G.Abramova o‘z ilmiy ishida rus va chuvash tillarida somatizmlar qatnashgan frazeologik birliklarni tahlil qiladi. U o‘z ishida “yurak” leksemasi qatnashgan somatizmlarga alohida to‘xtalib, ularda ikki xalq dunyoqarashi aksini tadqiq qiladi [Абрамова, 2005].

T.S.Spirinaning maqolasida ingliz, rus va nemis tillarida “hokimiyat” ma’nosini bildiruvchi somatik frazeologizmlar tahlil qilingan va har uch til doirasida ham “qo‘l” leksemasi ishtirok etgan iboralarda mazkur ma’no mujassamligi qayd etilgan [Спирина, 2013].

“Kognitiv aspektda frazeologik obraz (rus va koreys tilida somatik iboralar misolida)” mavzusidagi maqolada rus va koreys tilidagi iboralar qiyosiy onomasiologik tahlil qilingan. Choy Yun Xi ibora tarkibidagi so‘zlarning o‘z ma’nosini qisman va butunlay yo‘qotish holatlarini ikki tildagi somatik iboralarni taqqoslab tadqiq qilgan. Shu bilan birga, somatik frazeologizmlarda insonning fizik holati bilan birga psixologik holatini aks etgani tahlil qilingan [Чой Юн Хи, 2015].

Italian olimi M.B.Papi ingliz va italyan tillarida madaniy jihatdan “qo‘l” leksemasining frazeologik va ko‘chma ma’noda qo‘llanishini tahlil qilar ekan lingvokulturologik aspektning frazeologik birliklarda o‘z aksini qay yo‘sinda topishi ingliz va italyan tillari misolida ko‘rib chiqadi va ularning bir qancha o‘xshashlik va o‘ziga xosliklarga ega ekanligini qayd etadi [Papi, 2013].

M.B.Papi va Choy Yun Xi ishlarida guvoh bo‘lganimizdek, somatizmlar qatnashgan iboralar nafaqat leksik-semantik yo‘nalishda balki funksional yo‘nalish doirasida ham tahlil qilingan. Bu yo‘nalishda ishlagan olimlardan biri D.S.Sknaryovning dissertatsiyasida ma’no va qo‘llanish jihatdan rus tilidagi somatizmlar ishtirok etgan frazeologizmlar tahlil qilinadi. Muallif ishning birinchi qismida semantik tuzilish jihatdan somatizmlar qatnashgan iboralarni tahlil qilar ekan, “bosh”, “bosh qismlari”, “yurak”, “tananing yuqori va pastki qismlari” ishtirok etgan iboralarni ko‘rib chiqadi. Shu bilan birga iboraviy birliklardagi monosemiya, polisemiya, omonimiya, sinonimiya va antonomiya holatlari tadqiq qilinadi. Dissertatsiyaning uchinchi qismida mazkur iboralarning rasmiy matnlarda va og‘zaki uslubda (qishloq shevasida) qo‘llanilishi tahlil ostiga olingan [Скнарёв, 2006].

Mazkur olim o‘zining boshqa bir maqolasida somatizm ishtirok etgan iboralar reklama matnlarida qo‘llanishi va qanday ma’nolar kashf etishini tahlil qiladi va ularning reklama roliklarining asosiy qismida ishlatilishi, shu bilan birga ko‘plab mashhur kompaniyalar o‘z shiorlarida aynan somatizmlar ishtirok etgan iboralarni qo‘llashi va buning sabab hamda natijalarini tadqiq qiladi [Скнарёв, 2014].

S.Abdramanova dissertatsiya ishida ingliz tilini o‘rganayotgan turklar tarafidan, somatizmlar ishtirok etgan iboralarni ingliz tilida qo‘llashdagi o‘ziga xosliklar va o‘zlashtirish usullarini tadqiq qilgan [Abdramanova, 2012].

E.N.Tanasi maqolasida “qo‘l” va “oyoq” ishtirok etgan iboralarning Britaniya va AQSH kompaniyalari reklamalarida qo‘llanishidagi madaniy jihatdan o‘ziga xosliklarni tahlil ostiga oladi va bir til doirasida (ingliz tili) bir til birligining ikki hududda qo‘llanishidagi xususiyatlarni tadqiq qilar ekan, reklama matnlari “qo‘l” va “oyoq” somatizmlari qatnashgan iboralarda yangi o‘ziga xosliklarni kashf qiladi [Tanasi, 2014].

L.Manerkoning o‘z maqolasida “idrok” va “tana” orasidagi aloqaning ingliz iboralarida o‘z aksini topish masalasi ko‘rib chiqilgan. Ekstralengvistik ta’sir natijasida paydo bo‘ladigan iboralarda somatizmlar ishtirokining o‘ziga xosliklari va buning sabablari ishning asosiy qismini tashkil etadi [Manerko, 2014].

Xitoy olimi Chjen Guansze o‘z dissertatsiyasida rus tilida somatik iboralarni xitoy madaniyati vakili ko‘zi bilan tahlil qilish masalasiga bag‘ishlagan “qo‘l” va “oyoq” leksemalari ishtirok etgan i boralarga alohida to‘xtaladi [Чжэн Гуанцзе, 2013].

Demak, jahon tilshunosligida turli xil tillar doirasida mazkur muammo o‘rtaga tashlangan va turli yo‘nalishlar orqali ma’lum bir natijalarga erishilgan. Endi esa Turk tilshunosligida mazkur masalaning o‘rganilganlik darajasi bilan tanishamiz.

Qayd etish joizki, turkiy tillar, xususan turk tilshunosligida somatizmlar ishtirok etgan iboralar tahlil qilingan ilmiy ishlarning salmoqli qismi mazkur iboralarning ma’no doiralari tadqiqiga bag‘ishlangan.

N.Kacharova “ko‘z” so‘zi qatnashgan turk maqollarini tahlil qilar ekan, ularning tuzilishiga e’tibor qaratadi. “Ko‘z” so‘zining egalik qo‘srimchasisiz va bu qo‘srimchani olgan holatlari kelishiklarda tuslanib frazeologik birlik tarkibida kelishi mazkur ishning asosiy qismini tashkil qiladi [Kaçarova, 2014].

Turk tillarining somatik frazeologiyasini o‘rgangan olimlar ibora yasashda “bosh” so‘zini eng faol soma, deb ko ‘rsatishadi. Masalan, T.Aktash o‘zining dissertatsiya ishida iboralar va ularning maydonlari haqida ma’lumot berar ekan S.Nekiy Isenbetning “Tatar Téléněñ Frezéologik Süzlégé” nomli asarida “bosh” va “bosh”ga tegishli 18 ta organ nomlari bilan ifodalangan 2468 ta iboralarni aniqlagan. Bu iboralar lotin alifbosi asosida jadvalga solingan.

Birinchi ustunda tatar tilidagi iboralar lotin harflari bilan transkribsiya qilingan Ikkinci ustunda bu iboralar turkiya turkchasida izohli holda keltirilgan.

Uchinchi bo‘limda esa tatar tilidan turk tiliga tarjima qilingan iboralar joy olgan. [Aktas, 2013].

Shu bilan birga boshqa turkiy tillarda ham mazkur mavzu doirasida yozilgan ilmiy ishlar mavjud bo‘lib, ularning bir qismi ikki turkiy tildagi mazkur til birliklarining qiyosiy tahliliga bag‘ishlanadi.

Xususan, A. Tursunova dissertatsiyasida asosiy masalani tahlil qilishdan oldin qirg‘iz va turk tillaridagi etnik til birliklariga, so‘z tuzilish xususiyatlariga va iboralarning asosiy klassifikatsiyasiga to‘xtaladi. Ikki tildagi iboralarni solishtirishdan oldin ikki tilda qanday o‘xshashliklar borligi, so‘z tizimining bir xil yoki farqli ekanligiga to‘xtalinadi. Qipchoq guruhiga oid bo‘lgan qirg‘iz va og‘uz guruhiga oid bo‘lgan turk tilining tarihiy bog‘liqliklari, tillar orasidagi o‘xshash farqliliklar, tillarning rivojlanish tarihi va bu davrda ularning qardosh tillardan hamda boshqa tillarning ta’siriga uchrashi darajalari o‘rganilgan. Ishning davomida bu ikki tildagi “ko‘z” somatizmli iboralar solishtirilgan. [Tursunova, 2007].

O‘zbek tilshunosligida iboralar tahliliga bag‘ishlangan ishlar bir qancha bo‘lsada, somatizmlar qatnashgan iboralar tahlili keng tadqiq etilmagan va bu mavzu doirasidagi ishlarda qiyosiy tahlil asosiy o‘rinni egallaydi.

Xususan, M.M. Rustamova o‘z maqolasida italyan va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarda somatizmlarning tarkibiy qism sifatida leksik bog‘lanishini ko‘rib chiqib, somatizmlar ishtirok etgan italyan frazeologik birliklarni tahlil etadi va ularni o‘zbek tilidagi muqobillari bilan solishtiradi. Tahlil davomida o‘xshashliklar qayd etilib, o‘ziga xos jihatlarga alohida to‘xtalinadi [Rustamova, 2016].

Sh.R. Usmonova f.f. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan dissertatsiya ishida o‘zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlarni ko‘rib chiqgan. Mazkur ishda o‘zbek va turk tillaridagi somatik frazeologizmlar leksik-semantik va

grammatik qurilish jihatidan qiyosiy tadqiq etilgan. Bunda quyidagi masalalarni hal etish ko‘zda tutilgan:

-o‘zbek va turk tillaridagi somatik frazeologizmlarning miqdori, ularning tarkibida faol qatnashgan somalarni aniqlash;

-o‘zbek va turk tillarining somatik frazeologizmlarni struktur-sintaktik jihatdan tasniflash;

-somatik frazeologizmlarni tayanch hadlariga hamda predikat xarakteriga ko‘ra tasniflash;

-har ikki tildagi birikmaga teng frazemalarni muqobil va nomuqobil iboralarga guruhlantirib, ular orasidagi mazmuniy va shakliy o‘xshashlik hamda farqliliklarni aniqlash va umumlashtirish;

- har ikki tildagi gapga teng frazemalarni ham muqobil, ham nomuqobil iboralarga guruhlantirish va tuzilishiga ko‘ra sodda gap frazemalar hamda qo‘shma gap frazemalarga ajratish asosida o‘ziga xos semantik-sintaktik xususiyatlarni yoritish. [Usmonova, 1998].

O‘zbek tilida somatik frazeologizmlar A. Isayevning “O‘zbek tilining somatik frazeologizmlari” nomli nomzodlik ishida tadqiq qilinadi. Mazkur ilmiy ishda hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi somatik frazeologizmlarning miqdori, ularning kommunikativ funksiyalari, variantliligi, sinonimiyasi, omonimiyasi va antonomiyasi o‘rganilgan. Bosh va ko‘z so‘zi bilan yasalgan frazemalar ustida batafsil to‘xtalib, ularning tatarcha, turkmancha va ozarbayjoncha variantlari bilan qiyosiy tahlili berilgan. Olim somatik frazeologizmlar doirasini cheklab, unga hayvon tana azolarining nomlarini kiritishga qarshi chiqadi. Shu bilan birga, jon, ko‘ngil singari so‘zlarni somatik leksikaga kiritishga asos yo‘q, deydi. [Isayev, 1976].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Somatik frazeologizmlar vositasida har bir xalqning urf-odatlari, an’analari va kundalik turmushidagi mushtarak tomonlar ochib beriladi.

Shu jumladan, frazeologiyaning muhim qismini somatik frazeologizmlar tashkil qiladi. Ularning genealogik jihatdan birligi somatik Fblar miqdori, nutqdagi ma’noviy-vazifaviy xususiyatlari, va tarkibidagi somalarning umumiyligida namoyon bo‘ladi. Somatik frazeologizmlarni ifodalashda bosh, ko‘z, qo‘l va oyoq somalari faol qatnashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdramanova S. Processing of English idioms with body part components by native speakers of Turkish learning English with intermediate level of proficiency. Thesis for the Doctor of Philosophy Degree. Istanbul, 2012. 142 pages.
2. Aktaş T. Tatar Türkçesindeki “Baş” Ve “Baş”ta Bulunan Organ Adları İle Kurulmuş Deyimler Ve Bu Deyimlerin Türkiye Türkçesindeki Şekilleriyle Karşılaştırılması. Doktora tez projesi. Konya, 2013. 189 sayfa.
3. Kaçarova N. Türkçede Göz ile Başlayan Deyimler // Türk Dili. Sayı: 650. 2014. 129-133 sayfalar.
4. Manenko L. From human body parts to the embodiment of spatial conceptualization in English idioms. // The 4th UK Cognitive Linguistics Conference. 2014. P. 195-213.
5. Papi M.B. Idiomatic and figurative uses of “hand” in English and “muno” in Italian: embodiment and cultural filters. // Main Session Talks. Pisa, 2013.
6. Rustamova M.M. Somatizmlarning tarkibiy qism sifatida italyan tili frazeologik birliklarida uchrashi // Филологические науки. Ученый 21 века. № 4-2 (17). 2016. 53-55-betlar.
7. Tanasi E.N. Arm and leg idioms in the BNC and Coca Corpora: views on the cultural differences between British and American society. // International journal of Cognitive Research in Science, Engineering, and Education. Vol.2, №1, 2014. P. 77-85.
8. Tursunova A. Kirgizca Ve Türkçede “Göz” İle İlgili Deyimler Ve Çağrışım Alanlarının Karşılaştırılması. Yüksek Lisans Tezi. Ankara, 2007. 112 sayfa.
9. Абрамова А.Г. Фразеологические единицы с компонентами-соматизмами в разноструктурных языках :На материале русского и чувашского языков. Автореферат дисс. ... кан. фил. наук. Чебоксары, 2005. 20 с.
10. Городецкая И.Б. Фразеологизмы-соматизмы в русском и французском языках. Автореферат дисс. ... кан. фил. наук. Пятигорск, 2007. 23 с.
11. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Дисс...канд.филол.наук.-Т., 1976. -146 с.
12. Нассири М. Семантика и функционирование русских фразеологизмов с компонентами-соматизмами *рука* и *нога*. Автореферат дисс. ... кан. фил. наук. М., 2015. 23 с.
13. Нассири М. Семантика фразеологических единиц с соматическим парным компонентом *нога-рука*. // Вестник РУДН, №2. 2014. С. 67-71.
14. Нассири М. Соматические фразеологизмы с компонентом *рука* и их качественно – характеризующее значение // Лингвистические науки. Преподаватель XXI века, №3. 2014. С. 314-322.
15. Скнарёв Д.С. Фразеологизмы русского языка с компонентами-соматизмами: проблемы семантики и прагматики. Дисс. ... кан. фил. наук. Челябинск, 2006. 240 с.

16. Скнарёв Д.С. Фразеологизмы с компонентами – соматизмами как средство создание образа в рекламном дискурсе. // Фундаментальные исследования №5, 2014. С. 218-222.
17. Спирина Т.С. Фразеологические единицы английского, русского и немецкого языков, характеризующие власть, с компонентами-соматизмами. // Лингвистика и перевод. Lingua mobilis № 3 (41), 2013. С. 133-139.
- 18.Усманова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: ф. ф. н. дисс. – Тошкент,1998. 136 б.
- 19.Чжэн Гуанцзе. Фразеология тела в русском языке глазами носителя китайской лингвокультуры. Автореферат дисс. ... кан. фил. наук. М., 2013. 23 с.
- 20.Чой Юн Хи. Фразеологический образ в когнитивном аспекте (на примере соматических фразеологизмов русского и корейского языка) // Филологические науки. Вопросы теории и практики, № 2 (44) 2015. С. 83-99.
- 21.Чыклова Л. Фразеологические единицы с соматическим компонентом «рука» в русском и чешском языках. Выпускная квалификационная работа. Брно, 2012. 132 с.
- 22.Чэтэ Тимеа. Соматические фразеологизмы в русском и венгерском языках. Автореферат дисс. ... кан. фил. наук. М., 1999. 24 с.

Internet saytlari

1. www.knigka.ru
2. www.turkish.language.com
3. www.google.com
4. www.yahoo.com
5. www.wikipedia.com